

# Medal hammada bormi?

5-bet



2008-yil  
23-iyun  
N:25  
(66670)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

She'r zavqi



Marg'ilonlik shoir Ismoil Mahmud shogirdlari –  
«Jahon otin Uvaysiy» to'garagi a'zolari bilan.

## DUSHANBADAN

### NOVDAGI TADBIR

Yangiyo'l tumanidagi Nov qishlog'ida O'zbekiston ko'zi o'jizlar jamiyati tashabbusi bilan Xalq ta'limi vazirligi va Respublika ta'lim markazi hamkorligida seminar o'tkazildi. Tadbir «Ko'zi o'jizlar ta'limini takomillashtirish va samaradorligini oshirish» mavzusiga bag'ishlandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ko'zi o'jizlar va zaif ko'ruvchi bolalar uchun 16 ta maktab-internatlar mavjud.

– Hozirda ko'zi o'jizlarning oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari uchun qulay sharoitlar yaratib berish ko'zda tutilayapti. Bunda barcha tashkilotlarning hamkorlikda ishlashlari talab etiladi, – deydi Respublika ta'lim markazi bo'limi boshlig'i Rixsi Shomahmudova.

Sherali NAMOZOV

### KITOBXONLAR ANJUMANI

Respublika bolalar kutubxonasida «XXI asrda bolalar kitobxonligi: bolalar o'qishini tashkillashtirishda Axborot-resurs markazlarining o'rni» mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

O'quvchilarni kitobxonlikka yana-da jalb etish yuzasidan qator tavsiyalar berildi

Aziz o'quvchilar!

Eng sevimli va eng arzon  
gazetangizga yilning ikkinchi  
yarmi uchun

## OBUNA

davom etmoqda. Istalgan aloqa bo'limlarida  
qadrdon gazetangizga obuna bo'lishingiz mumkin.

### KO'CHAT EKIB, BOG' YARAT

Ko'chat ekib, bog' yarat – bu surxondaryolik yoshlarning shiori. Yaqinda Jarqo'rg'on tumanidagi iqtisodiyot va kasb-hunar kolleji o'quvchilari yangi bog' barpo etishdi. Uni «Yoshlar bog'i» deb atadilar. Ayni ta'til kunlarida bog'ning egalari o'z qo'llari bilan ekkan nihollari atrofida parvona.

## DUSHANBAGACHA

**«AHIL»NING AHIL BOLALARI**

Men Yangiyo'l tumanidagi «Gulbahor» shaharchasidagi fuqarolar yig'iniga qarashli «Ahil» mahallasida maslahatchi bo'lib ishlayman. Mahallamiz o'z nomiga munosib. Katta-yu kichik bir-biri bilan inoq, do'st, birodar.

Mahallamiz bolalari asosan yonginamizdagi 45-maktabga boradilar. Farzandlarimiz aqlli, odobli, bilimdon. Ayni ta'til kunlarida bolalarimiz bekor yurmaydilar. Aytishadi-ku, bekorchidan hamma bezor.

«Ahil»ning ahil bolalari ko'plab yaxshi tadbirlarda faol qatnashishyapti, sport musobaqalari, viktorina va suhbatlar uyushtirishyapti.

Siz-chi, aziz bolajonlar, mahallangizda qanday tadbirlar o'tkazyapsiz?

**Mahbuba HASANOVA,**  
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi  
«Ahil» mahallasi maslahatchisi

**ILM QADRI**


«Olim bo'lsang, olam seniki», degan gapni eshitgansiz-a? Qanday qilib olam bizniki bo'ladi, deysizmi? Chunki o'qigan odamning har narsaga aqli yetadi. U olamni anglaydi. Lekin o'qiganda ham tushunib, qalbda qoldirib o'qish kerak. Buning uchun esa g'ayrat, aql-farosat kerak. Ilmli inson uchun barcha eshiklar ham ochiladi. Imsiz esa hayotdan lazzat ololmaydi, birovga ham hech narsa berolmaydi. Shuning uchun ilmni qadrlang!

**Saidakrom ota SAIDMAHMUDOV,**  
Toshkent viloyati, Bo'ka tumani

**RIVOYAT BIZGA  
YOQDI**

Men sevimli gazetamning bir sonida hasad haqidagi rivoyatni o'qib, katta taassurot oldim. Chindan ham hasad yomon illat. Lekin bizning sinfimizda hasadgo'y o'quvchilar yo'q. Aksincha, biz bir-birimizga yordam berib, yutuqlarimizdan quvonamiz. Shuning uchun rivoyatni o'qib chiqib, dugonalarim bilan muhokama ham qildik. U barchamizga yoqdi.

**Gulcharos ROZIQOVA,**  
Toshkent shahridagi  
215-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi

**«KELAJAK OVOZI» -  
YOSHLAR PARVOZI**

Yoshlarga ko'p imkoniyatlar yaratilmoqda, degan gapni ko'p eshitasiz. Bizning viloyatda ham yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston madaniyati va san'ati jamg'armasi, «Kelajak ovozi» yoshlar tashabbusi markazi viloyat bo'limi va «Kamolot» YOIH tuman bo'limi hamkorligida tadbirlar o'tkazilib kelinadi. Navbatdagi tadbirda bugungi kun yoshlari zimmasida turgan burch va mas'uliyat hissi haqida so'z yuritildi. Unda

NamDU dotsenti Baxtiyor aka Isoqov, markaz vakillari Dilshodbek Otabekov, Oybek Tojiboyev fikr bildirdilar.

**Kamola NOSIROVA,**  
Namangan  
viloyati, Pop tumani

**AMALIY DARSLAR  
KO'P BO'LSIN**

Adabiyot darsi adiblarning uy muzeyida o'tkazilsa, zo'r bo'lar ekan. Biz sinfdoshlarim bilan sevimli yozuvchimiz G'afur G'ulom uyida bo'ldik. Ayniqsa, G'afur G'ulom ijodxonasi bizda katta taassurot qoldirdi. Bilsangiz, u yerda harf terish mashinasi, siyohdon-u peroli ruchka saqlab qo'yilgan ekan. Shunday amaliy darslar ko'payishini istardim.

**Ma'mura MASHARIPOVA,**  
Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyi

**MISRLIK YOSH USTOZ**

Bizning yurtimizda ham misrlik o'qituvchilar dars berishadi. Shulardan biri Misr Arab Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi fan va ta'lim Markazi arab tili o'qituvchisi Mahmud al-Meatydir.

– Men ta'limning magistrlik bosqichini Toshkentdagi Sharq-shunoslik institutida o'qimoqchiman. Sizing yurtingizga mehrim tushganidan ham ishlab, ham o'qib, O'zbekistondan ajoyib taassurotlar bilan o'z yurtimga qaytmoqchiman. Bu yilning «Yoshlar yili» deb e'lon qilinganidan hayratdaman, – deydi u.



**Nuriddin SIROJIDDINOV**



**Do'stligimizga  
ko'z tegmasin!**

**YANGI LOYIHA**


Aziz o'quvchilar!

Butunjahon banki ijro etuvchi direktorlari boshqarmasining O'zbekistonga mo'ljallangan yangi ko'mak strategiyasini muhokama etganidan xabaringiz bor.

Yangi strategiya 2008-2011-yillarni qamrab oladi va yiliga 2-3 davlat investitsiya loyihalariga moliyaviy ko'mak berishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, xususiy sektor uchun Butunjahon bankining kredit bo'linmasi hisoblangan Xalqaro moliya korporatsiyasi yordamida biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

2011-yilga borib, quyidagi sohalarda sezilarli natijalarga erishish taxmin qilinmoqda. Iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish, qishloq mintaqalarida aholi uchun daromadlarni va iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish, sog'liqni saqlash, ta'lim va suv ta'minoti sohalarda aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, atrof muhitni samarali boshqarish, tabiiy ofat xavf-xatolarini boshqarish, shu jumladan, mintaqaviy hamkorlik olib borish.

**Olimjon TOLIPOV,**  
TDIU iqtisodiyot fakulteti talabasi

**QIZIQARLI****DUNYO**

Dunyoda eng baland manzarali daraxt evkaliptlardir. Ularning bo'yi 150 metr, eni esa 30 metrgacha yetadi. Hindistonning Kalkutta shahridagi botanika bog'ida eng katta banan daraxti o'sadi. Uning bo'yi 412 metrni tashkil etadi.

\*\*\*

Kameliya deb ataluvchi chiroyli gulni bilasizmi? Bu gul soat ishlab chiqaruvchi sanoatning yuragi hisoblanadi. Bu guldandan soat mexanizmlari uchun ishlatiladigan maxsus moy olinadi.

\*\*\*

Dunyoda eng tez o'sadigan daraxt pavloniyadir. U bir mavsumda yetti metr balandlikkacha bo'y cho'zadi.

\*\*\*

Eng hidi o'tkir gul Amerikada o'sadi. Bu Amerika kaktusidir. Kaktusning hidini ikki chaqirim uzoqlikdan ham dimog'ingizda tuyishingiz mumkin.

\*\*\*

Nordon anor tarkibida haqiqiy limonga nisbatan ancha ko'p limon kislotasi mavjud.

\*\*\*

Inson ko'zi 130-250 ta sof – 5-10 million aralash ranglarni ajrata oladi.

\*\*\*

Bir daqiqada inson miyasidan 740-750 millimetr qon oqib o'tadi.

O'zbek bolalar adiblari



**Mahkam UMAROV**  
(1949-yilda tug'ilgan)  
Shoirning «Yettisoj ohanglari», «Dunyo», «Muhabbat» nomli she'riy kitoblari chop etilgan.



**Nurilla OSTONOV**  
(1955-yilda tug'ilgan)  
Nurilla Ostonovning «Yo'ldagi buloq», «Yuragimning bezovta guli», «Bahor raqsi», «Qadim yo'llarda», «Osmon to'la farishta» kabi bir necha kitoblari bosilib chiqqan.



**Abdusaid KO'CHIMOV**  
(1951-yilda tug'ilgan)  
Abdusaid Ko'chimovning «Chanoq» va «Ikki bahor» kabi she'rlar to'plami «Mening yulduzim», «Halqa» kabi hikoya va qissalardan iborat kitoblari nashr etilgan.



**Kavsar TURDIYEVA**  
(1958-yilda tug'ilgan)  
Shoiraning «Varrak», «O'ynayapman, o'ylayapman», «Qush bo'lib uchgan ona», «Raqamlar bo'yab sayohat» kabi to'plamlari o'quvchilar qo'liga yetib borgan.



**Umida ABDUAZIMOVA**  
(1953-yilda tug'ilgan)  
Shoiraning «Sevinchim», «Seni ko'rgim kelaveradi», «Arazlamang», «Salom, hayot», «Oymoma bog'» nomli o'ndan ortiq she'riy va badiiy kitoblari o'z muxlislari qo'liga yetib borgan.



**Abdurahmon AKBAR**  
(1962-yilda tug'ilgan)  
Shoirning «Kichiktoy va paxtaoy», «So'zlovchi yomg'ir», «Ehtiyotkor toshbaqa», «Yozning tug'ilgan kuni», «Kuylayotgan bog'», «O'yinqaroq bulutch», «O'rdakcham», «Jonli savatcha» nomli kitoblari chop etilgan.

Toshkentning 2200 yilligi oldidan

XIJOLAT TORTDIM

Ona shahrim haqida ko'proq bilim, uning tarixini o'z yutuqlarim bilan boyitgim keladi. Bobom Asomiddin Shokirov, buvim Dilbarxon ayaning men uchun olis tarix, ular uchun esa qadrdon bolalik xotiralarini zavq-hayrat bilan tinglayman. Ulardan tug'ilib o'sgan Samarqand darvoza dahasiga qarashli Suzuk ota mahallasi tarixi haqida bilib oldim.

Rivoyat qilishlaricha, kunlarning birida bobosi huzuriga mehmonga borgan Mustafoqulni erkalab, «Mening suzugim, xush keldingiz», deb bag'rilariga bosgan ekanlar. Shundan so'ng, Mustafoqulni Suzuk ota deb atashgan ekan.

Suzuk ota mahallasidan chiqaverishdagi o'ng tarafdin Samarqand darvozasiga chiqadigan yo'l bo'lib, u yerda 85-maktab joylashgan. Maktab ichida Xoja Nuriddin Said Muhammad Xoja o'g'li Toshkandiy maqbarasi bor. Bu yo'ldan o'tgach, ikki qabriston ro'parasidan chiqilgan. Ulardan biri Samarqand darvoza mozori bo'lib, uni xalq tilida Zaxmozor deb atashgan. Ikkinchisi esa Xo'ja Alambardor, ya'ni Kamolon mozori. Bu qabriston XV-XVI asrlardan buyon mavjud.

U yerda Xo'ja Alambardor maqbarasi, masjidi bor. Mahalliy rivoyatga ko'ra maqbara O'rta Osiyoda u Islom dinini birinchi bo'lib yoyganlardan biri Kaffol Al-Shoshiyning safdoshi Alambardor (bayroqdor) nomi bilan tanilgan. Xo'ja Alambardor sharafiga qurilgan.

Xalq tilida bu joy «Ochiq mozor» deb nomlanadi. Sababi, mozor o'rtasidan yo'l o'tgan bo'lib, bu yo'ldan hozirgi kunda mashinalar qatnaydi. Eng qizig'i, yo'l faqat bitta mahallaga olib boradi.

Buvimning bu hikoyalaridan o'zimiz borib ziyorat qilgan Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriydek alloma bobolarimizning zurriyodlari, izdoshlari shundoqqina mahallamizda, shahrimizda yashab o'tganligini bildim. Bundan ham xursand bo'ldim, ham xijolat tortdim. Xijolat tortganimning boisi – bu haqda juda kech bilganim edi. Siz-chi, aziz hamshaharim, bu haqda, ko'hna Toshkent, uning muqaddas qadamjolari, dilimizga faxr-iftixor tuyg'usini soladigan alloma bobolarimiz haqida nimalarni bilasiz?

Nafisa SHOKIROVA,  
Toshkent Davlat pedagogika universiteti talabasi

OZ-OZ  
O'RGANIB,  
DONO  
BO'LUR



Aziz o'quvchim!  
Hayot – katta sahna. Bu sahnada

sen tasavvur etolmagan turli ko'rinishlar ko'z oldingdan o'taveradi. Shunday lahzalar bo'ladi, o'zingga munosib do'st qidirishga tushasan. Bilki, samimiy, mard do'st topsang, to'kis va baxtli hayot kechirishing mumkin. «Yaxshi do'st – tunganmas xazina», deydi donishmand Qobus bobongiz.

Boshqa donishmandlarning so'zlariga ham bir quloq solgin-a!

Yolg'izlikda yashagan odam – yarim odam.

Per Buast, farang tilshunosi

Do'stlik sevgidan ko'ra bardoshliroq bo'lmog'i lozim.

Stefaniya Janlis, farang adibasi

Nodon do'st eng xavfli dushman.

Jan de Lafonten, farang masalchishoir

Do'stlar fikridin va dushmanlar makridin beparvolig' joiz ermas va shu ish nadomatdin o'zga natija bermas.

Alisher Navoiy

Do'stlikning birinchi sharti – ishonch.

Jan de Labryuyyer

Shubha boshlangan joyda do'stlik tugaydi.

Seneka, rim yozuvchisi

SHAHNOZA tayyorladi

Yangi hovliga ko'chib o'tishning gashiti boshqacha bo'lar ekan. Ko'p qavatli uyda turganimizda, bir kundayoq zerikib qoladigan onamning bir hafta turadigan bo'lib kelganlaridan bolalarim xursand bo'lib ketishdi.

Kechki payt buvisidan xabar olgani kirgan jijanim Abdurashid uyda o'tirgan onam bilan ko'rishish o'rniga hovli tomonga o'tib ketdi. Keyin esa qizim Farida bilan o'g'lim Muhammadsharifni imlab chaqirdi. Ularga qo'ynidan bir narsa chiqarib berdi-da, qo'llarini yuvib uyga kirdi. Onam ziyrak ayol edilar. Nabiralarning nimadir shumlik qilganini darrov sezidilar.

– Namuncha yov quvgandek zipillab o'tib ketmasang?

Jijanim javob berishga ulgurmay hovlidan Farida bilan Muhammadsharifning shodon ovozi keldi.

– Munira, Rohila, bu yoqqa kelinglar, zo'r narsa.

Bolalar hadeganda uyga kiravermagach, onam jijanimni so'roqqa tutdilar.

– Ukalarimni nima bilan andarmon qilib qo'yding? Uyga kirgilari kelmay qoldi-ku.

1 Abdurashid nima

deyishni bilmagandek, og'irligini dam bu oyog'iga, dam bunisiga soldi.

Onamning yuz-ko'zlaridan jijanimning bu ishi ma'qul bo'lmagani sezildi.

– Kichkina hovlida kuchuk bolaga balo



bormi? Erta-indin katta bo'lsa, idish-tovoqqa tegib, hamma joyni makruh qilib yuboradi.

Bu holdan bir jahlim chiqib, bir qiziqish bilan hovliga chiqdim. Ortimdan onam ham chiqdilar. Tufli qutisiga emin-erkin joylashgan kuchukcha oq-

sariq, sezilar-sezilmas qora aralashgan rangda bo'lib, lo'ppigina edi.

Onam achinish bilan kuchukchaga qaradilar.

Bu orada xizmat safariga ketib, yaqin bir yarim oy deganda qaytib keldim.

Kuchukcha ancha o'ziga kelib qolgan, uchlari oppoq dumini likillatgancha hovliga chiqqan odamning ortidan ergashardi. Bolalar ham unga antiqa nom qo'yishibdi: Kepper.

Bir gal mehmonga kelgan onam kuldilar.

– Kuchukchaga qanaqa nom qo'ydinglar? Odamning tili aylanmaydi. Mallami, Olaparmi, deb qo'ysanglar bo'lmaydimi!

– Kuchukka antiqa ism topgan M u n i r a buvijonisining yelkalaridan kuchukcha oq-

Yusuf FAYZULLO

(Voqea)

Davomi 4-betda


– Kepper degani, inglizchasiga qo'riqchi degan ma'noni bildiradi. Bir kitobda o'qigan edim. Itga qanday nom qo'yilsa, u shu nomni oqlashga urinarkan. Agar aytishga qiynalsangiz, Kepa deya qoling, biz erkalab, Kepa, Kepavoy deymiz.

Ochig'i, Kepperni qo'riqchi bo'lishiga ko'zim yetmasdi. Ba'zan kechalari bolalarimni qo'yniga kirib olib yotishiga qaraganda qo'rqqo, xashaki bir it katta bo'layotgandi.

U asta-sekin huriy boshladi. Har gal eshikka chiqqanimda oldimga yugurib keladi. Men esa oyog'im bilan sekin turtib o'zimdan uzoqlashtiraman. Bolalarim esa uni yer-u ko'kka ishonishmaydi. Nima tansiq narsa bo'lsa, Kepperga ilinishadi.

Har doim o'qrayib qarashim, oldimga yaqinlashsa, tepmoqchi bo'lganday po'pisa qilishlarim o'z ishini ko'rsatdi.

Endi Kepper meni ko'rganda, dumini likillatib chopib kelmas, iloji boricha ko'rinmaslikka harakat qilardi. Ayolim ishdan, bolalarim saboqdan kelar payt ko'cha darvozamiz oldiga borib kutib o'tirar, birortalari kelisha toki darvoza ochilguncha uvillab yuborardi. Kirgan odamni ikki oyog'ida turgancha kutib olar, uyga



## YORDAMCHI

Yumushi ko'p onamga,  
Bergim keladi yordam.  
Kirlarni yuvib qo'ysam,  
Sevinadi judayam.

Tandirda non yopgan chog',  
Oydek qizarar yuzi.  
Ishi ko'p, qarashmasam  
Ulguroalmas bir o'zi.

Latofat **OMONDAVLATOVA,**  
Sho'rchi tumani

O'rinbek  
**TOG'AYMURODOV**

## ONAJON

Farishtaga alla aytgan zot,  
Siz emasmu, mehribon onam.  
Ko'zim nuri, qalbm quyoshi,  
Mehringizdan o'sib ulg'aysam.

Foniy ekan bu ko'hna dunyo,  
Yuraklarga sig'maydi armon.  
Kuyolmasam qutlug' nomingiz,  
Qanday shoir bo'lay, onajon?

## NAFISANING GULLARI

Nafisa boqqa borib,  
Nafis gullarni terdi.  
So'ng, ularni dastalab  
Ukajoniga berdi.

Ukajoni Abromning  
Ko'zlari ketdi quvnab.  
Uni guldonga solib,  
Ko'ngli ketdi bir yayrab.

Feruza **OMONQULOVA,**  
Surxondaryo viloyati, Boysun  
tumanidagi  
17-o'rta maktabning 4-sinf  
o'quvchisi

## YURTIM

Bugun hur bag'ringda  
yashaymiz shodon,  
Ey, munavvar o'lkam, qudratli  
diyor,  
Baxtinga abadiy bo'lg'in sen  
omon,  
Seni kuylagayman takror va  
takror.

Nodira **JASURALIYEVA,**  
Marg'ilon

## KICHIKBOYBUCHANING XUSHNUDABONUSI

Tahririyatimizga isticarasi issiqqina  
qizaloq qo'lida Vatan, yoshlik haqidagi  
«Bahorinam» she'rlar to'plami bilan kirib  
keldi. U Farg'onadan kelibdi. Biz qizaloq  
bilan yaqindan tanishdik.

Xushnudabonu Imomaliyeva Dang'ara  
tumanidagi Kichikboybucha qishlog'idan ekan.  
30- maktabning 7-«A» sinfini a'lo baholarga  
yakunlabdi. Bo'sh vaqtlarida qo'lidan kitobni  
tashlamaydigan Xushnudabonu singlisi  
Mulkijahonga, ukalari Abduhamidjon va  
Abdusaidjonga o'qigan hikoyalarini doimo  
so'zlab berarkan...

Yaqinda oila a'zolari Xiva va Buxoroga  
sayohatga borishibdi. Shaharning ko'rkam va  
go'zalligi, mezbonlarning mehmondo'stligidan  
quvonib qaytishibdi.

Xushnudabonudan ota-onasi, buvisi va  
opoqisi (dodasi), ustozi Dilshoda opa  
Jabborova birdek xursand.

Biz ham Xushnudabonuga katta yutuqlar  
tilab qolamiz.



## VA'DA

Va'da berma birovg'a,  
Va'da berdingmi, bajar.  
So'zing ehtiyot qilgil,  
Mard va jasur bo'lsang gar.

Chiqsang va'dang ustidan,  
Quvnab ketadi diling.  
Oqibatda uyulib,  
Tishlab qolmaysan tiling.

SH.G'ULOMJONOVA

## GO'ZAL OLAM

Halollik yaxshi doim,  
Deydilar menga oyim.  
Halol ishning oxiri,  
Yaxshilikdir, Guloyim.

Shuning uchun, do'stlarim,  
Bo'laylik yaxshi odam.  
Ezguliklar ko'p bo'lsa,  
Go'zaldir asli olam.  
Malohat **CHORIYEVA,**  
Buxoro viloyati, Qorako'l  
tumanidagi 22-maktabning 4-  
sinf o'quvchisi

## QOQI O'T

Quyosh ko'kdan kulgancha,  
Qoqi o'tga boqadi.  
Sho'x, o'ynoqi gulchada  
Bag'ri dilim yoqadi.

Oftob bo'lsa, kuladi,  
Kun botgach yopiladi.  
Ko'nglimizni chulg'ab u,  
Quyoshdek sochiladi.

Gulchiroy **ISOQOVA,**  
Sirdaryo viloyati,  
Sayxunobod tumanidagi 28-  
maktabning 4-«A» sinf  
o'quvchisi

## Boshi 3-betda

kirgunicha atrofiga parvona bo'lardi.

Kepper bora-bora mahallamizdagi eng yaxshi itlardan biriga aylandi. Tiq etgan sharpani ko'zdan qochirmas, begona odamni hovliga yaqinlashtirmasdi. Bolalarim aytganlaridek, haqiqiy qo'riqchiga aylandi.

To'rttala oyog'ining pastdan bir qarichi, keng ko'kragi oppoq, qolgan joylaridagi qora aralash, oq-sariq rang Kepperni chiroyli ko'rsatardi. Qo'ni-qo'shnilar havas bilan itimiz haqida gapirisha boshlashdi. Bir kuni eski tanishim Abdusattor fermer «Damas» mashinasiga ikkita chiroyli qo'zichoqlarni yuklaganicha kelib qoldi. Nariroqda o'rtoqlari bilan o'ynab yurgan o'g'limni chaqirdi.

—Mana bu qo'zilarni qaysi biri chiroyli?

O'g'lim qo'zichoqlarga havas bilan tikildi.

—Ikklasiyam yaxshi ekan.

—Bittasini itingga almashtiraman. Xohlaganingni tanla.

O'g'lim hayron bo'lib menga qaradi. Anchadan beri qo'zi olib bering, o'rtoqlarimga qo'shib boqib yuraman, deb yuruvdi. Men esa hafসা qilmayotgan edim. O'g'lim qo'zichoqlarga havas bilan tikildi.

—Menga qo'zichoq kerak emas, — dedi u.

—Ikkitadan qo'zigayam

bermaysanmi?

O'g'lim yerdan boshini ko'tardi.  
—Yaqinda dadamning o'zlari olib beradilar.

Abdusattor rulda o'tirgan holda engashib, orqa eshikni ochdi. Keyin esa qo'zichoqlarga imo qildi.

—Tushurib ol, senga sovg'a. Faqat bir shartim bor: itingga yaxshi qara.

Bolalar yozgi ta'tilga chiqqan dastlabki kunlarida jiyanim Munisa endi bir yoshga kiray deb qolgan o'g'ilchasini ko'targancha mehmonga kelib qoldi. Bolalarim shiringina bo'lib qolgan Javohiri biri olib-biri qo'yib obdon o'ynatishdi.

Peshinga yaqin Javohir Faridaning qo'lida yelkasiga boshini qo'ygancha uxlab qoldi. Munisa bolani ichkari uyga yotqizib chiqqach, bodom tagidagi chorpoynada choxo'rlik qilib, har xil voqealarni eslab o'tardik. Bir payt boylog'lik turgan Kepper allaqanday g'ayritabiiy ovozda uvillay boshladi. Birozdan keyin esa uning ovoziga chidab bo'lmay qoldi. Jahl bilan yonimda o'tirgan o'g'limga yuzlandim.

—Olifta Kepavoying boyliqda turib qiynalib ketdi shekilli, bor, yechib yubor.

O'g'lim ham shuni kutib turgandek yugurib borib itini zanjirdan holi qildi. Kepper shamol tezligida yelib ayvon romiga o'zini urdi. Ortida shuvillab to'kilgan oyna siniqlarini qoldirgancha ichkari uyga otildi. Bu holdan hammamiz karaxt bo'lib qoldik.

Munisaning ovozi hammamizni hushyor torttirdi.

—Ichkarida Javohir yotuvdi. Hech narsa qilmasmikin?

Chorpoynada o'tirganlarning hammasi o'rnidan turdi. Men yaqinidagi qo'ylar uchun o't o'rib kelgan o'roqni qo'lga oldim.

—He, ushlab bergan tulkisini qo'yib.

Vajohatim shu darajada edi-ki, Kepperni o'roq bilan chopib tashlashga tayyor edim. Birinchi bo'lib uyga kirib ulgurigan Munisa baqirib yubordi.

—Tog'a, tog'a, tez keling.

Ichkari uydagi manzaradan o'zim ham tosh qotdim. To'rt, qalin ko'rpalar ustida Javohir do'mboqqina qo'l-oyoqchalarini ikki tomonga yozganicha mazza qilib uxlab yotardi. Bir quloq chamasi keladigan ilon to'rga o'tishga intilar, Kepper esa uni oldini qoya kabi to'sib olgandi. Qop-qora tusdagi, bir qarashda kishi etini junjiktiruvchi ilon xuddi dakan xo'roz kabi yarim tik turib uch-to'rt bor Kepperga tashlandi.

Shunday harakatlar chog'ida Kepper ilonni bo'ynidan g'archecha tishladi. Bilonglab bo'yniga chirmashgan ilonni lapanglagancha hovli etagiga olib ketdi. Hammamiz taxta bo'lib qolgan edik.

Hovli etagiga borganimizda esa ilondan nom-nishon ham yo'q. Devorimiz orti keng dalaga tutashgan edi. Kepper changalidan qutilgan ilon dala tomon chiqib ketgandi. Bu holdan hammadan ko'ra ayolim mamnun bo'ldi.

—Kepa uni o'ldirmagani yaxshi bo'ldi.

—Endi ilon zoti

—Endi ilon zoti

—Endi ilon zoti

—Endi ilon zoti

uyimizga yaqinlashmaydi.

Bodom tagidagi chorpoynaga qaytdik. Kepper ham oyog'ini bazo'r sudragancha bizga ergashdi. Har doimgidek ayolim ziyraklik qildi.

—Dadasi, Kepaga bir narsa bo'ldi shekilli, ilon chaqdimikin?

Rostdan ham u chorpoynaga yetmay sal berida, tandir yonida to'xtab qoldi. Boshini ko'tarishga majoli yo'qligidan oyoqlari ustiga qo'ydi. Beixtiyor hammamiz uning tepasiga bordik. Ko'zlari allanechuk nursiz boqardi.

Farida Kepperni boshini ko'tarib tizzasiga oldi.

—Dada, siz ham boshini silang, agar o'lib qoladigan bo'lsa, sizniyam yaxshi ko'rib qolsin.

Umrimda hayvon zotiga qilmagan ishni qildim.

Kepperni boshini siladim. Shu holatda bir narsadan hayron bo'ldim. Ayolim, bolalarim biri olib-biri qo'yib boshini silayotgan payt beparvo yotgan jonivor mening qo'lim boshiga tekkanida seskanib ketgandek bo'ldi. Boshini ko'tarib men tomon xiyol burildi. Shunda dahshatga tushdim. Kepperning ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan edi.

Shu alpozda qancha turdim, bilmayman, ayolimning gaplaridan o'zimga keldim.

—Dadasi, nahotki Kepa o'lib qolsa...

—Dadasi, nahotki Kepa o'lib qolsa...

—Dadasi, nahotki Kepa o'lib qolsa...

—Dadasi, nahotki Kepa o'lib qolsa...

## MEDAL HAMMADA BORMI?

Yaqinda «Jar» sport majmuidagi sambo bo'yicha 13-17 yoshli qizlar o'rtasida O'zbekiston birinchiligi bo'lib o'tgandi. Bu musobaqada 100 nafardan ortiq qizlar o'n to'rt vazn toifasida gilamga chiqishdi. Sambo federatsiyasi Osiyo chempionatlari va birinchilik musobaqalarini tashkil etishni yuqori darajada tashkillashtirgan. Bu qulaylik musoba qatnashchilarini xursand etdi.



Axir qatnashchilar endi poytaxtda yotoqxona va uch mahal issiq ovqat bilan to'la ta'minlandilar-da. O'zbekiston milliy federatsiyasi rahbarlari, ayniqsa, viloyatlardan kelgan sportchi bolalarga qulay sharoit yaratish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishdi. O'z navbatida bu harakatlar o'z samarasini berdi. Samarqand, Qashqadaryo, Andijon sportchilari o'z shiddatlari bilan boshqalardan ajralib turishdi. Musobaqada, ayniqsa, Surxondaryo viloyati terma jamoa

a'zolarining kuchli raqiblariga munosib qarshilik ko'rsatishi, qolaversa, g'oliblik shohsupasidan joy olishi respublikamizda yana bir kuchli jamoa shakllanayotganidan darak berdi.

**Birinchilikning bronza medali sohibasi bo'lgan Shahnoza Oqbo'tayevani g'alaba bilan qutladik.**

Men Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 4-o'rta maktabning 7-sinfida o'qiyman. Sambo bilan shug'ullanayotganimdan xursandman. Ustozim Fayzullo Aliqulovga behad minnatdorchilik bildirishdan sira charchamasam kerak. Ko'plab musobaqalarda g'olib bo'lishimning siri ustozimning bilimidan deb bilaman. «Jar» menga yana bir bronza medalini taqdim etdi. 40 kg. vazn toifamda tengdoshlarim orasida uchinchi o'rinni egalladim. Terma jamoamiz a'zolaridan Madina oltin, Shodiya, Xurshida kumush, O'g'iloy va men bronza medalini qo'lga kiritganimizdan xursandmiz.

Bugungi g'oliblik shohsupasi bizda ertangi musobaqalarda g'alaba qozonishimizga ishonch uyg'otmoqda.

Biz ham surxondaryolik g'olib qizlarni medallar shodasi bilan tabrikladik. Tirishqoq va maqsadlari sari dadil odimlayotgan sportchi qizlarning quvonchlarini ko'rib, hammada ham medallar shodasi bo'lsa-chi, deya faxrlandik. Sportning mashaqqatli yo'li ularga hamisha g'alabalar karvonida yurishni nasib aylaversin, deb niyat qildik.

Ma'mura MADRAHIMOVA

## RUSTAM POLVONNING SHOGIRDI


Mo'min aka, siz o'quvchilik yillaringizda jismoniy tarbiya darsini yaxshi ko'rgan ekansiz?

To'ppa-to'g'ri. Maktabda men uchun eng sevimli fan jismoniy tarbiya darsi edi. Bu ishtiyoq bekorga emasligini hayot yo'llarim ko'rsatib berdi. O'quvchiligimdan o'zbek milliy kurashi, futbol bilan muntazam shug'ullandim. O'smirligimda milliy kurash bo'yicha uch bora respublika g'olibi bo'lganman. Maktabni bitirgach, tabiiyki, sport sohasini tanladim. Sportda nimaga erishgan bo'lsam, umr yo'ldoshim, jismoniy tarbiya o'qituvchisi Halimaxon tufayli bo'ldi. U kishi meni to'g'ri tushunib, hamisha qo'llab-quvvatlab keladi. Farzandlarimiz ham izimizdan qadam bosishdi. O'g'illarim Tavakkal, Ro'zimuhammad, Azamat, qizim Marg'uba ham jismoniy tarbiya o'qituvchisi. Kelinlarni ham sportchilardan tanladik. Ular ham jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari.



Shunday odamlar bo'ladiki, ular bolalikdan bir kasbni tanlab, unga umr bo'yi sodiq qoladilar. Hayotlarining mazmuni ham shunda bo'ladi. Toshkent viloyati, Zangiota tumani bolalar va o'smirlar sport maktabining rahbari Mo'min aka Qodirov ham ana shunday insonlar toifasidan. Mo'jaz suhbatimiz bilan tanishgach, bunga o'zingiz ham ishonch hosil qilasiz.

Bolalar, rasmdagi bokschi akangizni darrov tanidingiz-a? Axir tanimasdan bo'ladimi? Bugun yurtimizning barcha ommaviy axborot vositalarida Xurshid Tojiboyev haqida faxrlanib gapirishyapti. Axir Xurshid akangiz bolaligidan sportning boks turiga mehr qo'yib, endilikda yuksak dovon - olimpiada o'yinlarida qatnashish baxtiga muyassar bo'ldi. Jizzaxliklar



Xurshidjonning bu yutug'idan haqli ravishda faxrlanmoqdalar. Chunki yosh sportchimiz ilk saboqni Paxtakor tumanidagi 9-umumta'lim o'rta maktabida olgan. Ayni damda poytaxtimizdagi Olimpiada zaxiralari kollejining 3-bosqichida tahsilni davom ettirmoqda. Biz ham Xitoyning Pekin shahriga yo'l

olayotgan sportchimizga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

## «REAL» BILAN O'YNAGAN BOLA

Futbol ishqibozlari Rossiyaning «Spartak» futbol jamoasi sardori Dmitriy Alenichevni yaxshi bilishadi. Yaqinda Moskva shahrining «Lokomotiv» o'yingohida rossiyalik futbol yulduzi Dmitriy Alenichevning futbol bilan xayrlashuviga bag'ishlangan o'rtoqlik uchrashuvi bo'lib o'tdi.

O'yinning tugashiga besh daqiqa qolganida, «Spartak» jamoasi tarkibida o'zgarish bo'ldi. Dmitriy Alenichev o'rniga shogirdi 10 yoshli Aleksandr Obidov maydonga tushdi.


Eng mashhur jamoalardan biri «Real» futbolchilariga qarshi to'p surgan 10 yoshli bolakayga futbol mutaxassislari ham qiziqib qolishdi. Shuningdek, uchrashuvni kuzatgan futbol ishqibozlaridan tortib murabbiylargacha Aleksandrning mohir futbolchilarga xos epcil harakatlarini tik oyoqda diqqat bilan kuzatishdi.

10 yoshli futbolchi Aleksandr Obidov asli Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidan. Uning oilasi taqdir taqozosi bilan Moskva shahriga ko'chib ketishgan.

Ota-onasi o'g'lining futbolga qiziqishini sezib, «Spartak» futbol klubi, ya'ni olimpiadachilar zaxira maktabiga olib borishdi. Bosh murabbiy Andrey Lebedev Iskandarning birinchi o'yinidayoq maktabga qabul qildi. Shundan so'ng, unga Aleksandr deb ism qo'yishdi.

Dastavval u o'zi tenggi yosh futbolchilar o'rtasida Moskva shahar chempionligini qo'lga kiritdi. Bugungi kunda Iskandar Obidov Ispaniya Qirollik futbol akademiyasida tahsil olmoqda. Yurtdoshimiz Iskandarga katta futbol olamida katta omad yor bo'lsin!

M.MUSAYEVA



Oilamiz bilan bolalar sportini rivojlantirishga baholi qudrat hissa qo'shayotganimizdan behad mamnunmiz. O'g'illarim Ro'zimuhammad va Azamat 2006-2007-yillarda «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida g'olib bo'lishganida, boshimiz ko'kka yetdi. Yosh sportchi bolalar ularni o'z akalaridek ko'rib, yutuqlarini birga baham ko'rayotgan chog'larini ko'rganimizda, qalbimiz g'urur va iftixorga to'ldi. Xolis, to'g'ri melinat qilgan inson albatta bir kuni qadr topadi. Bolalarimning onasi Halimaxon hamda Ro'zimuhammad va Azamat Xalq ta'limi a'lochisi degan yuksak unvonga ega bo'ldilar. Oilamiz a'zolari uch yildirki, «Sportchi oila» viloyat bellashuvida sovrindorlar qatoridan o'rin olib kelmoqda.

- Sizni mashhur Rustam polvonning shogirdi, deyishadi...
- Albatta. Meni kurashga qiziqtirgan, avvalo dadam bo'ladilar. Sportchi etib shakllantirgan esa kurash bo'yicha to'qqiz karra O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikasi chempioni Rustam polvon Tojiyevdir.
- Shogirdlaringiz haqida ham gapirib bersangiz?
- No'mon Matvaliyev, Ashurali Rahmonov, Rasul Karimov, No'mon Umarov va Akrom Mamajonovdek qobiliyatli shogirdlarim borligidan suyunaman. Ular respublika miqyosidagi musobaqalarda qatnashib, ko'p bora g'oliblik shohsupasiga ko'tarilganlaridan xursandman.
- Kurashchilar to'ylarda toblanadi, deyishadi. Shu fikrga munosabatingiz?
- E, nimasini aytasiz?! Men xalqimizning ana shu to'ylarida pishgan kurashchiman-da. Mahallada har kuni to'y bo'lavermaydi-ku, shuning uchun guzarga chiqardik. Nomdor polvonlar bilan bel olishardik. Azbaroyi qiziqqanimizdan Uchko'prik, Buvayda, Rishton, u yog'i Namanganning Pop, Chust, To'raqo'rg'on, Kosonsoy tumanlarigacha, yana u yog'i Andijonning Qo'rg'ontepasigacha poyi piyoda ketaverardik.
- Hozir ham to'ylarda kurash tushib turasizmi?
- Agar davraga chorlashsa, albatta tushaman.
- Farzandlaringiz ham o'zingiz kabi «o't-olov»mi?
- Yo'q, ularda biroz tortinchoqlik bordek ko'rinadi. Ammo yoshligimdagi qiziqish, shiddatkorlikni nabiralarimda ko'ryapman.
- Ulardan nimalarni kutaysiz?
- Shuncha yillar ichida qanchadan-qancha o'g'il-qizlar qo'l ostimizda shug'ullanib, sportda ko'plab yutuqlarga erishdilar. Nabiralarim bo'ladimi, shogirdlarim bo'ladimi, shulardan biri olimpiada o'yinlari ishtirokchisiga aylansa, armonim qolmasdi.

Shukur JABBOROV suhbatlashdi



## BEDIL

### TEMURIYZODAMI?

Istiqlolimizga qadar Bedil kabi mutafakkirlarimizning hayoti va ijodi bir tomonlama o'rganilib kelindi.

«Mir'otul xayol» asaridan dalil keltirilgan Miyon Buzruk Bedilning kelib chiqishi haqida juda muhim ma'lumotlar beradi: «Bedil» nasli jihatidan chig'atoy ulusining «arlos» yoki «barlos» elindandir (bu kalima ko'p eski kalimalardek turli shaklda rivoyat qilingan).

«Mir'otul xayol» degan kitobning hoshiyasidagi ma'lumotda «On janob az kavme arlose chig'atoyiast» qoida bordirki, bu «Qulliyoti Bedil»dagi bir taqrizda ham naql etilgan.

Bedilning bobolari O'rta Osiyodan Hindistonga Bobur Mirzo zamonida borib qolganlar. Bedil ham o'sha yerda 1643 milodiy yilida tug'ilgan va unga «Mirzo Abdulqodir» nomi berilgan. Bedil uning taxallusidir.

Demak, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda shuni ta'kidlashimiz mumkinki, «arlos» yoki «barlos» qabilasi o'zbek xalqining tashkil topishida qatnashgan etnik komponentlardan biri bo'lganligi sababli, Mirzo Muhammad Abdulqodir Bedilni o'zbek xalqiga vatandosh siymo deb aytishga haqlimiz.

Mazkur maqolaning yozilish sababi, ko'pchilik bedilshunoslar e'tiborga olmagan muhim masala, ya'ni Bedilning asli kelib chiqish nasabini ishonchli manbaalarga tayangan holda oz bo'lsa-da, yoritib berishdan iboratdir. Manbaalar bilan tanishish davomida shu aniqlandiki, Bedil buyuk Sohibqiron Amir Temur avlodlaridan bo'lishi mumkinligi haqida aniq taxmin bor. Mirzo Muhammad Abdulqodir Bedilning nasabi ulug' bobokalonimiz Amir Temurga aloqador ekanligiga ishora qiluvchi ba'zi bir ma'lumotlarni quyida ko'rib chiqamiz. Miyon Buzruk «Bedil» maqolasida «Mir'otul xayol» kitobiga asoslanib, «Zotan, Bedilning ismidagi «Mirzo» kalimasi uning Temur sulolasidan bo'lganiga ochiq dalildir. Chunki «Xon» kalimasi mo'g'ul sulolasiga qanday xos bo'lsa, «Mirzo» kalimasi ham

temuriylarga shunday xosdir. Bu tarixiy bir voqeadir» kabi ma'lumotga duch kelamiz. Bedilning hayoti va faoliyatiga doir tadqiqotlar, asosan, sho'rolar davriga to'g'ri kelgani uchun uni «temuriylar»dan qilib ko'rsatishga urinilmagan. Holbuki, shoir-faylasuf ismidagi «Mirzo» unvoni kasb oti emas, balki uning nasabini ifodalovchi sifat bo'lib, uning otasi, amakisi va tog'asi ham shu unvon bilan yuritilgani Miyon Buzrukning ehtimolini quvvatlaydi. Sadridin Ayniy Bedilni Temur avlodidan ekanligini ochiq aytolmay, quyidagicha ishora qiladi: «Bedil va uning qarindoshlari nomlarining «Mirzo» unvoni bilan boshlanishi shuni ko'rsatadiki, ularning bobolaridan biri ulug' boshliq (sardor) bo'lishi mumkin. Chunki Hindistonda atoqli boshliqlar avlodini «Mirzo» degan faxrli unvon bilan ataganlar va bular o'ziga xos bir tabaqa hisoblangan».

Hamidulla Boltaboyev Bedil haqidagi maqolasida V.Irvingning «So'nggi mo'g'ullar» asaridan ixtibos keltirib, shunday yozadi: «Akademik I.Mo'minov «Mirzo Bedil» risolasida shoirning Avrangzeb o'g'li Muhammad A'zamshoh xizmatida yurganini qayd etib, shahzoda Bedildan o'ziga atab madh yozishni so'raganida, Mirzo Bedil bu taklifni rad etib, uning xizmatidan ketadi. Hindistonda yashagan ingliz olimi V.Irvingning «So'nggi mo'g'ullar» kitobida aynan shu uchrashuv keltirilib, Muhammad A'zamshoh uni o'ldirmoqchi bo'lgani, lekin «o'z nasabidan» ekanini nazarda tutib, Bedilni haydab yuborganini aytadi».

Xulosa qilib aytganda, ulug' shoir-faylasuf Mirzo Muhammad Abdulqodir Bedilning ijodi insoniyatning o'tmish ajdodlari yaratgan eng yaxshi, eng nodir madaniy yutuqlarning merosxo'ri bo'lgan xalqimizning xazinasidan munosib o'rin egallagan. Istiqlolimizni ko'rolmay o'tib ketgan olimlarimiz, xususan, yirik bedilshunoslarimizdan Fitrat, Miyon Buzruk, S.Ayniy, I.Mo'minov va boshqalar armonlarini ro'yobga chiqarish farzandlarimiz burchidir.

*Zero, Bedil «temuriyzoda» ekanligi taxmini o'zining mufassal bir tasdig'ini topishiga umid bilan qaraymiz.*

So'zimizni Bedilning to'rtligi bilan yakunlaymiz:

*Inson daftaridan varaq bu jahon,  
Odam kabobining tutuni osmon.  
Ikki jahon ungan urug'ni bilsak,  
Kishi xayolidan yetishgan bir don.*

Aziza SHONAZAROVA  
tayyorladi

### FURSATDAN FOYDALANISH

Yumronqoziq  
Izlab oziq,  
Holdan toyib  
Mudrab ketdi.  
Tulki esa  
Yayrab rosa,  
O'z iniga,  
Sudrab ketdi!

### «SHAXMAT USTASI»

–Teng taqsimlab xonalarni,  
Terib qo'ydim donalarni.  
Sizga oqi bo'laqolsin,  
O'zim olay qoralarni.

Ko'p chayqamang boshingizni,  
Hurmat qildim yoshingizni.  
– Qani, endi ko'rsating-chi,  
Uray qaysi toshingizni?!

Orif TO'XTASH

### QIZIQCHI

Gapga chechan bolaman,  
Men qiziqchi bo'laman.  
Hozircha besh, yaqinda  
Olti yoshga to'laman.

Masxaraboz nomim bor,  
Qiziqchiman tap-tayyor!  
Doimo bu ishimda  
Kulgi menga madadkor.

Bog'chamizda bolalar  
Meni yaxshi biladi.  
Masxaralab kulsam ham  
Yig'lashmaydi, kuladi.

Qiziqchilar ko'paysa,  
Kulgimiz bo'lgay serob.  
Chaqchaqbobomiz aytgan:  
–Kulish-kuldirish savob!

To'lan TABASSUM

### A'LOCHI VA QOLOQLAR

Yozilmagan qonun yashar  
Har sinf, har partada:  
A'lochi oldda o'ltirar,  
Qoloq esa orqada.  
Hayotda ham ahli bashar  
Shunga iqror, yo'q gumon:  
A'lochilar yaxshi yashar,  
Qoloqlar yashar yomon...

### GUL VA TIKAN

Gulni hamma sevadi,  
Tikandan hamma bezor.  
Gul doimo tepada –  
Tikan esa pastda, xor.  
Ozor ahlin suyar kim  
Tikanda mehr netsin...  
Shu boisdan, do'stlarim  
Gul bo'lmoqqa ne yetsin?!

Ziyovuddin MANSUR

### Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

– Anavi dugonang-chi? Ismini unutibman...  
Ha, Ivonn-chi.

– U Mayorkada dam olyapti, – keskin dedi  
Petunya.


– Yolg'iz o'zimni qoldirib ketishingiz ham  
mumkin, – gapga qo'shildi Garri o'zining taklifi  
hammaga yoqishi va u, nihoyat, oynayi jahonda  
aynan o'ziga qiziqarli ko'rsatuvlarni ko'rishi,  
ehtimol, hatto Dadlining yangi kompyuterida  
o'ynay olishi mumkinligidan umidvor holda.

Petunya xolaning afti xuddi limon chaynab  
yuborgandek burishib ketdi.

– Qaytib kelganimizda, uyimizdan faqat  
xarobalar qolganini ko'rishimiz uchunmi? –  
irilladi u.

– Axir uyni portlatmoqchi emasman-ku, –  
e'tiroz bildirdi Garri, lekin unga endi hech kim  
quloq solmayotgandi.

– Balki... – sekin gap boshladi Petunya xola. – Balki uni o'zimiz  
bilan birga olib ketishimiz... va hayvonot bog'i yonida mashinada  
qoldirishimiz mumkindir...



Bizning tarjima

– Yangi mashinamda uning yolg'iz o'zi o'tirishiga yo'q bo'lmayman, – achchiqlandi Vernon amaki.  
D a d l i baqirib yig'lay b o s h l a d i.


– Voy, xudoyim, bu o'shalar! – Petunya xolaning ovozida hadik bor edi.

Bir daqiqadan keyin oshxonaga Dadlining eng yaxshi do'sti Pirs Polkiss onasi bilan birga kirib keldi. Pirs kalamush siyohli, qoq suyak bola edi. Aynan o'sha, ko'pincha Dadli kaltaklayotganda qochib ketmasliklari uchun uning qurbonlarini ushlab turardi. Do'stini ko'rib, Dadli soxta yig'isini darhol bas qildi.

Yarim soatdan keyin Garri o'z baxtiga ishonishga ham haddi sig'may, Dursllar mashinasining orqa o'rindig'ida Pirs va Dadli bilan birga o'tirar va umrida birinchi bor hayvonot bog'iga ketardi. Xolasi bilan pochchasi shuncha o'ylab, uni kimga tashlab ketishni bilisholmadi. Lekin Garri mashinaga o'tirmasidan oldin Vernon amaki uni bir chetga tortdi.

Gulchehra SA'DULLAYEVA  
tarjimasi

Davomi bor.



«MATBUOT» TOPSHIRIQLI SKANVORD

Chizmaning o'rt qismidagi raqamlarda sevimli nashrimizning nomi yashiringan. Uni skanvordni hal qilgandan so'ng, javoblar yozilgan raqamli xonalardagi taalluqli harflar bilan almashtirib, bilib oling.

								1			
	Ma't- buot fani		She'ri- yat		O't- mish	Haj- viy gazeta	Xalq	Fan		Nashr soni	2
							Bog'- lovchi				
	Tar- g'ibor rukni								Suv guli		
	Yozuv turi	Turkum sar- lavha		Ma'rifat- parvar shoir	3						... ha (hudud)
	4				Fur- sat		... Beru- niy			Oy no- mi	
Vaqtli nashr turi		Aziz inson		Ulug' diyor	O'zbek shoiri						
					Uka	5			Dastlabki Bilvosita	Ochiq- oydin- lik	
<p style="text-align: center;"><b>KALIT SO'Z</b></p> <p style="text-align: center;">1 4 10 9 8 7 6 2 7 3 5</p>											
								Haqi- qiy nusxa			6
Yozuv ash- yosi	Asarning ilk matni	7	His- tuyg'u holati	Asarni o'rga- nish	8	Musaf- fo payt		Gulzor mas- kan		Sport rukni	
						Ada- biy janr					
	Asar- dagi jumboq			...bot						Xuddi o'zgi- nasi	Juft emas
9	...sof						Bog'- lovchi				
		To- vush		Yil davri					Idrok		Yo- zuv
			Dar- yo	Teva- rak	Azaliy qo'shiq	Vaqt o'l- chovi	Hik- mat	10			



## BEBAHO SOVG'A

Muxlisa Mamajonova Surxondaryo viloyati, Denov shahridagi 75-umumiy o'rta ta'lim maktabida tahsil oladi. U 2007-2008-o'quv yilini a'lo baholarda yakunladi.

– Muxlisa menga «Maqtoov yorlig'i»ni olib keldi. Bu men uchun bebaho sovg'a bo'ldi, – deydi uning onasi Feruza Sultonova.

**Yurtga munosib qiz bo'l, Muxlisa!**

## BUGUNNING



## «YANGI AVLOD»LARI



Farg'ona shahar madaniyat uyi qoshidagi «Nargiz» guruhi «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'olibi bo'ldi. Guruh 1992-yilda tashkil topgan. Uning dasturidan o'zbek milliy raqslari bilan birga g'arb, sharq mamlakatlari raqslari ham o'rin olgan. «Nargiz» guruhi respublika, viloyat, shahar miqyosida o'tkazilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Guruh a'zolaridan M. Turg'unboyeva nomidagi milliy raqs ijrochilarining ko'rik-tanlovida guruh yakkaxonlari M. Qurbonova, Z. Nabiyeva, M. Asqarova faol ishtirok etib, I va II o'rinlariga sazovor bo'ldilar.

Nazokatxon TOJIBOYEVA

## TIL BOR – BOL KELTIRADI...

Til tig'i qilich tig'idan o'tkir.

Til jarohati bitar, dil jarohati bitmas.

Dil bilan tugilgan tugun tish bilan yechilmas.

Fil kuchli, fildan til kuchli.

Til kichik, ammo u dunyoni buzadi.

Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz.

O'n baloning to'qqizi tildan kelur.

Dil bor – bol keltiradi, til bor – balo.

Shakar ham tilda, zahar ham tilda.

Eng chuchuk narsa ham til, eng achchiq narsa ham til.

Bir so'z o'ldiradi, bir so'z kuldiradi.

## CHALOB

Jazirama saratonning juda foydali, salqin ichimliklaridan biri shunday nomlanadi. U asosan respublikamizning yoz faslida eng issiq hududi bo'lmish Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida tayyorlanib kelingan. Chalobni tayyorlash usuli quyidagicha:

Suvi sizdirilgan yog'siz suzma qaynatib sovutilgan suvga yaxshilab aralashtiriladi. Aralashma bir tekis suyuq bo'lganidan so'ng keragicha tuz, oz-ozdan suv solib aralashtirishni davom ettiriladi. Suzmaning yog'i yuzaga qalqib, ayron holiga kelgunicha suv solib turiladi. Chanqovbosi taomga bodring, olma, rayhon barglarini maydalab solinsa, uning xushbo'yligi yana-da oshadi. Uni idishlarga solib muzlatib ichsangiz, yozning jazirama kunlarida bundan foydali hamda rahatliroq narsani topa olmaydiz.

«Tong yulduzi» gazetasiining aziz mushtariylari! Chalobni tayyorlab, ota-onangiz, buva-buvilaringiz, oila a'zolaringizni albatta xursand eting.

Kumisbek KAZIBEKOV,  
Yuqorichirchiq tumani, Bolta  
qishlog'idagi 18-umumiy o'rta ta'lim  
maktabining 8-«G» sinf o'quvchisi



## 17-iyun – Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni

## LOYXO'RAK

Loyxo'rak – erkin, ozod va ko'rkam qush. Tashqi ko'rinishi chipor bo'lib, tumshug'i uzun, ko'zlari katta-katta va juda sezgir. Tumshug'i ov uchun benazir qurol, tirmoqlari ham yaxshi ish beradi. Bu beozor qush zo'rg'a va arang uchadi. Loyxo'raklar ovoz chiqarib, shovqin solib, o'lkamizda paydo bo'lishadi. Ular boshqa qushlarga qaraganda, ilgariroq uchib kelishadi. Ko'payish mavsumi ular uchun katta ahamiyatga ega. Ular bir-birlariga mos tushganlaridan keyingina juftlashishadi. Shundan so'ng ular uchun mas'uliyatli damlar boshlanib, daraxt shoxlari va butalar orasiga in qurishadi. Ko'payish ular hayotining asosini tashkil etadi.

Tuxumdan chiqqan yumshoq patli palaponlar bir oydan so'ng muskullarini chiniqtirib, qanot boylab ucha boshlaydilar. Kattalar g'amxo'rliqi kichkintoylar uchun nihoyatda zarur. Ular ota-onasining tovushidan tanishadi.

Ular erta tongdanoq qanot qoqishib, turli tovushlar bilan osmon-u falakni to'ldirib yuboradi. Bu tovushlar o'zaro muloqot vazifasini ham o'taydi. Samo ummonida charx urayotgan xilma-xil qushlarni ko'rib, ko'z quvnaydi. Hayot maromi davom etaveradi.

Abdulla SAIDOV

## XANDA

Abdullajon judayam shirin bola-da, bog'chadan keldi deguncha, uni hol-joniga qo'ymay, u yuzidan, bu yuzidan o'paverishadi. Bundan bezor bo'lgan Abdulla bir kuni bog'chasidan kelgach, yuzini qo'li bilan to'sib dedi:

– Endi meni hadeb o'pavermanglar, bo'lmasa, chaqaloq bo'lib qolaman.

\*\*\*

Alijon o'zicha afsuslandi:

– Katta odam bo'lish ham yomon. Na sharbat ichging, na muzqaymoq yeging keladi...

\*\*\*

Dadasi olib kelgan yangi o'yinchoqni Azizbek aylantirib ko'rgach, so'radi:

– Dada, buni qanaqa qilib buzadi?



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

### BOSH MUHARRIR: To'liqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:  
Zuhra  
MUXSIMOVA  
Navbatchi:  
Ma'mura  
MADRAHIMOVA

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMIU Bosh  
muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

**Manzillimiz:**  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

**Rassom:**  
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida  
chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.

Adadi - 49546  
Buyurtma N: J 5481